

ROBINDRANAT TAGOR DINIY-FALSAFIY QARASHLARIDA INSONNI ILOHIYLASHTIRISH VA XUDONI INSONIYLASHTIRISH MASALALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.11669342>

Nuridinov Javohir Izomovich

TDIU “Ijtimoiy fanlar” kafedrası tayanch doktorati (PhD)

nriddinov.javohir@gmail.com

ANNOTATSIYA

Tagorning diniy qarashlari asosan insonni ilohiylashtirish va Xudoni insoniylashtirishga asoslangan. Xudoni insoniylashtirishning ma’nosini tushuntirar ekan, u shunday deydi: “Xudoni insoniylashtirish nafaqat Xudo insoniyatning Xudosi, balki u har bir insonda Xudo ekanligini anglatadi”. Tagorning fikricha, dinning mohiyati insonparvarlikdir. Aynan shu insoniy jihat dinning asosini tashkil qiladi. Tagor insoniylik va ilohiylik ikki xil tartiblarga tegishli emas, deb hisoblagan. Ular xuddi bir tanganing ikki tomoniga o‘xshaydi. Dinning maqsadi insonda yashirin yotgan ilohiylik elementini uyg‘otishdir. Tagorning fikricha, din bo‘luvchi kuch emas, balki har doim birlashtiruvchi kuch bo‘lishi kerak. Haqiqiy din bu barcha odamlarning diniy e’tiqodlaridagi farqlarni emas balki birligini qabul qiladigan dindir.

Tagor shaxsan Baul qo‘shiqchilarining gumanistik falsafasini “hind Xalqining dini” kitobida ijobiy birlik sifatida izohlaydi. Baul qo‘shiqchilaridan keyin Vaishnavizm, Mirabay tasavvufi, Tulsidas madhiyalari, Chandidas so‘zlari, Kabirning mistik qo‘shiqlari ham Tagorga katta ta’sir ko‘rsatdi. Tagorning o‘zi Kabirning yuzta she’rini ingliz tiliga tarjima qilgan. Kabir she’rlaridagi Tagorni o‘ziga jalb qilgan narsa bu uning diniy sevgi falsafasi, dinga xolis qarashlari va insonga bo‘lgan ilohiy e’tiqodi edi.

Kalit so‘zlar: asketizm, gedonizm, hinduizm, braxmanizm, upanishadlar, “Inson dini”, “Sadhana”, “Gitanjali”.

ABSTRACT

Tagore's religious views are mainly based on deification of man and humanization of God. Explaining the meaning of the humanization of God, he says, “The humanization of God means not only that God is the God of mankind, but that he is God in every human being.” According to Tagore, the essence of religion is humanity. It is this human aspect that forms the basis of religion. Tagore believed that humanity and divinity do not belong to two different orders. They are like two sides of the same coin. The purpose of religion is to awaken the hidden element of

divinity in man. According to Tagore, religion should always be a uniting force and not a dividing force. A true religion is one that accepts the unity of all people in their religious beliefs, not their differences.

Tagore personally interprets the humanist philosophy of the Baul singers as a positive unity in his book Religion of the Indian People. After Baul singers, Vaishnavism, Mirabai Sufism, Tulsidas hymns, Chandidas lyrics, Kabir's mystical songs also had a great influence on Tagore. Tagore himself translated a hundred of Kabir's poems into English. What attracted Tagore in Kabir's poems was his religious philosophy of love, his unbiased views on religion and his divine faith in man.

Key words: *asceticism, hedonism, Hinduism, Brahmanism, Upanishads, "Religion of Man", "Sadhana", "Gitanjali".*

АННОТАЦИЯ

Религиозные взгляды Тагора основаны главным образом на обожествлении человека и гуманизации Бога. Объясняя смысл гуманизации Бога, он говорит: «Гуманизация Бога означает не только то, что Бог есть Бог человечества, но и то, что Он есть Бог в каждом человеческом существе». По мнению Тагора, суть религии — человечность. Именно этот человеческий аспект составляет основу религии. Тагор считал, что человечество и божественность не принадлежат к двум разным порядкам. Они как две стороны одной медали. Цель религии – пробудить в человеке скрытый элемент божественности. По мнению Тагора, религия всегда должна быть объединяющей, а не разделяющей силой. Настоящая религия — это та, которая признает единство всех людей в их религиозных убеждениях, а не их различия.

Тагор лично интерпретирует гуманистическую философию певцов Баулов как позитивное единство в своей книге «Религия индийского народа». После певцов Баула большое влияние на Тагора оказали вайшнавизм, суфизм Мирабаи, гимны Тулсидаса, лирика Чандидаса, мистические песни Кабира. Сам Тагор перевел на английский сотню стихов Кабира. Что привлекло Тагора в стихах Кабира, так это его религиозная философия любви, его непредвзятые взгляды на религию и его божественная вера в человека.

Ключевые слова: *аскетизм, гедонизм, индуизм, брахманизм, Упанишады, «Религия человека», «Садхана», «Гитанджали».*

KIRISH

Tagorning diniy qarashlari asosan insonni ilohiylashtirish va Xudoni insoniylashtirishga asoslangan. Xudoni insoniylashtirishning ma'nosini tushuntirar

ekan, u shunday deydi: “Xudoni insoniylashtirish nafaqat Xudo insoniyatning Xudosi, balki u har bir insonda Xudo ekanligini anglatadi”. Tagorning fikricha, dinning mohiyati insonparvarlikdir. Aynan shu insoniy jihat dinning asosini tashkil qiladi. Tagor insoniylik va ilohiylik ikki xil tartiblarga tegishli emas, deb hisoblagan. Ular xuddi bir tanganing ikki tomoniga o‘xshaydi. Dinning maqsadi insonda yashirin yotgan ilohiylik elementini uyg‘otishdir. Tagorning fikricha, din bo‘luvchi kuch emas, balki har doim birlashtiruvchi kuch bo‘lishi kerak. Haqiqiy din bu barcha odamlarning diniy e‘tiqodlaridagi farqlarni emas balki birligini qabul qiladigan dindir. Haqiqiy din insonni o‘z jamiyati, mamlakati va mazhabidan yuqori darajaga ko‘taradigan shaxsning ichki rivojlanishidir. Haqiqiy din - bu o‘z tabiatini anglashdir. Tagor hinduizm, islom yoki nasroniylik bo‘ladimi, hech qachon biron bir diniy muassasa va diniy amaliyotga ishonmagan. Tagor uyushgan dinlar jamoalar uyg‘unligiga to‘siq bo‘lib xizmat qiladi, deb hisoblardi. Tagorning Xudo, birlik va tenglik haqidagi qarashlari uning bir qancha ma‘ruzalarida, she‘rlarida va romanlarida o‘z ifodasini topgan.

ASOSIY QISM. Tagor Hind ongining eng buyuk ijodiy daholaridan biri edi. U buyuk shoir, yozuvchi, dramaturg, faylasuf, musiqachi, qo‘shiqchi va rassom edi. uning shu singari ko‘p tomonlama daholigi uchun Sisir kumar Ghose uni “mukammal inson” deb ta‘riflagan edi [1.131]. Niharanjan Ray esa Tagorning entsiklopedik qarashlari haqida yozish paytida uni “Hindiston renessansining Leonardo-da-Vinchisi” sifatida tasvirlangan [6.164].

Tagor Hindiston o‘rta asrlardan zamonaviy asrga o‘tayotgan paytda tug‘ilgan. U diniy o‘zgarishlar muhitida tarbiyalangan. O‘tmishga tanqidiy qarash va kelajakka bo‘lgan yangi intilishlar yangi uyg‘onishni belgilardi. Aql va imon endilikda imon va e‘tiqod o‘rnini egalladi. Xurofot fanga olib kelindi. Harakatsizlik taraqqiyot bilan almashtirildi. Ushbu davrda Sutralarning an‘anaviy ma‘nosi tanqidiy ekspertizadan o‘tkazildi hamda axloq va dinning ortodoksal tushunchalari qayta modellashtirildi [2.806]. Shuningdek bu davr Bengaliyada uchta harakatning shakllanishi bilan ham farqlidir. Uch harakatning hammasidan Raja Ram Mohan Roy tomonidan kiritilgan diniy harakat o‘ziga xos tarzda inqilobiy edi. Raja Ram Mohan Roy tomonidan barcha dinlarning sintezi asosida yaratilgan Brahmo Samaj liberalizmi Tagor dunyoqarashining shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Tagor ayniqsa, Bengaliyaning Baul qo‘shiqchilaridan juda ta‘sirlandi. Ular Hindistondagi adashgan avliyolardir, ular hech qanday diniy muassasaga ishonmaydilar va hech qanday ibodat joyiga kirmaydilar. Ular liberal mutafakkirlar singari shunchaki insoniyatning sevgisiga va fidokorona mehnatiga ishonishgan. Chunki Xudoni anglash ibodat orqali emas, balki sevgi va xizmat orqali amalga

oshiriladi. Tagor shaxsan Baul qo‘shiqchilari bilan aloqada bo‘lgan va ularning gumanistik falsafasini “hind Xalqining dini” kitobida ijobiy birlik sifatida izohlaydi.

Baul qo‘shiqchilaridan keyin Vaishnavizm, Mirabay tasavvufi, Tulsidas madhiyalari, Chandidas so‘zlari, Kabirning mistik qo‘shiqlari ham Tagorga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Tagorning o‘zi Kabirning yuzta she‘rini ingliz tiliga tarjima qilgan. Kabir she‘rlaridagi Tagorni o‘ziga jalb qilgan narsa bu uning diniy sevgi falsafasi, dinga xolis qarashlari va insonga bo‘lgan ilohiy e‘tiqodi edi. Xususan Kabir she‘rlarida shunday deydi:

O servant, where doesn't thou seek me?

LO! I am beside thee

I am neither in temple nor in mosque

I am neither in Kaaba nor in Kailash

Neither am I in rites and ceremonies

Nor in Yoga and renunciation.[10.104].

(Manosi: Ey xizmatkor, meni qayerdan qidirasan? Mana! Men sening yoningdaman, Men na butxona, na masjidida emasman, Men na Ka‘bada, na Kailashdaman. Na urf-odat va marosimlarda, na Yoga va na voz kechishdaman.)

Xuddi shu ohangda Tagor ham Gitanjalida shunday yozadi: "U shunday yerdaki u yerda yer haydovchi qattiq yerga ishlov beryapti va yo‘lchi toshlarni maydalayapti"[11.22].

Rabindranat Tagorning dinga bo‘lgan qarashiga Upanishadlar va Bhagavadgita ham ta‘sir ko‘rsatdi. Tagorning o‘zi "Sadhana" (Sadhana VII)[12.8] ning muqaddimasida yozganidek u upanishadlarning matnlari kundalik ibodatda ishlatiladigan oilada o‘sib ulg‘aygan: “Men uchun Upanishadlarning oyatlari va Buddaning ta‘limotlari har doim ruhiyatning asosiy tushunchalari bo‘lgan va cheksiz hayotiy o‘sishning asosidir. Shu sababli men ularni o‘z hayotimda ham, ishimda ham men uchun alohida ma‘noga ega bo‘lgan instinktlar sifatida ishlatganman”[12.8].

Tagorning biografiyasi ustida ishlagan Prabhat Kumar Mukerji uning butun hayoti Upanishadlar ta‘limining evolyutsiyasi va rivojlanishi bilan bog‘liqligini ta‘kidlaydi. Bu ta‘sir quyidagi “Isha svetasvatara” singari Upanishadik iboralardan ko‘rinib turibdi:

- uning universal inson haqidagi g‘oyasi (Vishva-manava);

- uning hamma narsada ilohiy mavjudlikning borligi kontseptsiyasi (Ishavasyam Idam Sarvam Yatkincha Jagatyam Jagat);[3.50].

- uning Xudo va tabiat bilan o‘zaro aloqadorlini tasdiqlashda upanishadlarning ta‘siri.

Bundash tashqari 1921-yilda Tagor tomonidan tashkil etilgan Visvabharati Universitetining shiori ham Upanishadlardagi olam to‘g‘risidaga g‘oyadan kelib

chiqqanini ko‘rish mumkin. Ya’ni “Yatra Visvam Bhavatyekanidam” (“Dunyo bu yagona uydur”)

Tagor uchun din na tarkidunyochilik va na dunyo burchlari va majburiyatlaridan qochishdir. Jannatning tartiblangan osoyishtaligida panoh topish asketizm emas. Tagorning so‘zlariga ko‘ra haqiqiy din hayot, quvonch, harakat va mavjudlik ritmidir. Naravane o‘zining “An Introduction to Rabindranath Tagore” asarining kirish qismida aytganidek: “Tagorning asketizmni rad etishi gedonizmni tasdiqlashini anglatmaydi”. [5.48]. Dunyodan lazzatlanish, zavq uchun qul bo‘lish emas. O‘z-o‘zini anglash istak va voz kechish kabi ikki narsa o‘rtasidagi nozik muvozanatni saqlashdan iboratdir. Tagorning e’tiqodiga ko‘ra hayot bu barcha narsani quvonch bilan qabul qilishda edi. Tagor insonning eng yuksak shon-shuhrati deb zohidlik emas, balki mag‘lubiyat va umidsizlikdan yuqoriroq chiqishida deb biladi. Uning ko‘plab she’rlari va pyesalarida biz yer yuzidagi inson hayotining go‘zalligini doimiy ravishda ulug‘lanishini ko‘rishimiz mumkin. Tagor o‘zining “Bog‘bon” asarida bu haqida shunday deydi: “men hech qachon Zohid bo‘lmayman ... men hech qachon o‘z uyimni tark etmayman va o‘rmonda yolg‘izlikda nafaqaga chiqmayman”. [13.43].

Tagorning Xudoni anglashdagi qarashlari ham gumanistikdir. Vedantaga ko‘ra insondagi ilohiylik konsepsiyasi —Nara-Nārāyana Tagor diniy falsafiy qarashlarining rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi. Tagorning fikriga ko‘ra: “Haqiqiy din insonning insoniyligini anglatadi: asosan insoniyatga xizmat qiladi. Bu haqiqatning insoniylik jihatlari shundaki, barcha buyuk shaxslar o‘z hayotlarida o‘zlarini yaratgan va turli dinlar nomidan o‘z yaqinlariga taklif qilgan jarayondir” [14.269]. Boshqacha aytganda: “Xudoni sig‘inish orqali anglash uni bosqichma bosqich egallash jarayoni emas, balki u haqidagi ongimizni sadoqat bilan kengaytirish hamda yaxshilik va muhabbat yo‘lida xizmat qilish kabi bizni o‘rab turgan kundalik jarayondir” [15.149].

Tagor iloh ham ma’lum jihatdan inson ekanligini ta’kidlamoqda. Xudo insonda eng yaxshi tarzda namoyon bo‘ladi, ba’zida insonning o‘zi Tagor uchun ibodat ob’ekti Xudoga aylanadi. U shunday deydi: “men Xudoni marosimlar va qattiq amaliyotlar bo‘lmagan ma’budda ko‘rishni xohlayman”. Tagorning aytishicha, turli xil urf-odat va marosimlar inson qalbida Xudoning borligini anglashda to‘siqdir. “Mening dinim inson dinidir, unda insoniylikka cheksiz o‘rin ajratilgan” [16.96]. Tagorning so‘zlari bilan dinning maqsadi insonda hamma yerda mavjud bo‘lgan ilohiylikni amalga oshirishdir. Dinning maqsadi nafaqat ilohiylik elementini uyg‘otish, balki uni iloji boricha universal qilishdir.

Aslida Tagor Xudoni tabiat go‘zalliklari orqali tasavvur qiladi, Chunki u Xudo o‘zini tabiat orqali ifoda etishiga ishonadi. U tabiatni begona va harakatsiz deb

hisoblamaydi, balki u bilan yaqinlikni his qiladigan tirik narsa deb biladi. U daraxtlar va bulutlar bilan yaqinlikni his qiladi.

Tagor deydi: “Hindiston yong‘oq daraxtlari liniyasi bo‘ylab kuchli yomg‘irni uyg‘otadigan bo‘ronlarning to‘satdan hali yog‘ishga ulgurmagani bulutlarni bir joyga supurib kelishi, yonayotgan yoz peshining ayovsiz yolg‘izligi, kuz tongida to‘kilgan shabnam donalari ortidagi tinch quyoshning nur sochishi bularning barchasi ajablanarlidir”[16.92]. Tagor o‘zining miftik tasavvurida tabiat go‘zalliklari bo‘lgan gullarda, yashil o‘tlarda, bulutlardagi ranglar o‘yinida, oqayotgan suvning shovqinli musiqasida barchasida Xudoni tasavvur qiladi[16.101]. Tagorning so‘zlariga ko‘ra, inson va tabiat bir-biriga ontogonistik emas. Shunday deb o‘ylash, kurtak va gulni alohida ikkita kategoriyalarga bo‘lish va ularning turli xilligi va qarama-qarshiligining sababini xudolarning inoyati sifatida ko‘rishdir.

Tagorga ko‘ra, din insonning haqiqiy tabiatini anglashdir. Bu yerda Tagor o‘zini anglashning turli usullari haqida gapiradi. Ya‘ni sevgi orqali, harakat orqali va cheksizlikni anglashga yordam beradigan tabiat go‘zalligi orqali anglash ularning asosiylaridir. Tagor uchun inson Xudoni faqat sevgida topa oladi, chunki uning ishonishicha Xudo haqiqiy sevgiga xosdir. Sevgi bizning sevgimiz obyektiga nisbatan ma‘lum harakatlarni talab qiladi. Upanishadlar bizga hech qachon ishlashni taqiqlamagan, chunki ishda quvonch erkinligi yotadi. Xuddi o‘z she‘ridagi shoirning quvonchi, o‘z jasoratini namoyon qilishdagi jasur insonning quvonchi, haqiqatlarni anglashdagi donishmandning quvonchi, butun kundalik ishdagi Brahmaning quvonchi kabidir [15.7]. Go‘zallikni anglash cheksizlikni anglashning bir usuli sifatida qaraladi. Tagor insonga “...daraxtlarni o‘stirish, qushlar va hayvonlarni boqish, tuproq suvi va havoning ulkan sirini his qilishni o‘rganish”[15.131] singari tabiat hayotini boshqarishni tavsiya qiladi. Tagor ruhga nisbatan panteistik qarash namoyondasidir. U hamma joyda Xudoni ko‘radi. U tabiatni ziyorat qilish uchun eng muqaddas joy deb ataydi va tabiatda Xudoning mo‘jizasini topadi. U tabiatda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlar ilohiy namoyishlar ekanligini his qiladi. Tagorning so‘zlari bilan uning Xudo haqidagi aniq tasavvurini quyidagi iborada topish mumkin. “Men uchun din juda aniq narsa, garchi bu haqda gapirishga haqqim yo‘q bo‘lsa ham. Agar Xudoning ko‘rinishini anglashga imkoniyatim bo‘lsa, men uni bu dunyo orqali, daraxtlar, qushlar va hayvonlar orqali, chang va tuproq orqali ko‘ra olaman. ...Men uning mavjudligini osmonda, havoda, suvda: hamma joyda his qilaman” [17.201]. Ushbu ta’sirlar ostida Tagor o‘zining inson dini deb atalgan shaxsiy qarashlarini namoyon etdi. Tagor dinining muhim jihati shundaki, u estetik xarakterga ega edi. Uning diniy hayoti va she‘riy hayoti bir-biri bilan aralashib ketgan. U o‘z dinini “shoir dini” [17.3] deb ataydi.

Hayot bu o‘z-o‘zini anglash va o‘zini o‘zgartirish jarayonidir. Tagor harakatlanishga dinning mohiyati sifatida qaraydi. Din atrofdagi o‘zgarishlarga moslashish qobiliyatiga ega. O‘zgaruvchan vaziyatlarning talablariga binoan o‘zgarmaydigan din to‘xtab qolishi va yo‘q bo‘lib ketishi bilan bog‘liqdir. Tagorning so‘zlariga ko‘ra haqiqiy din o‘zining asosiy tabiatiga ta‘sir qilmasdan yangi g‘oyalarni ham kiritishga harakat qiladi. Shuning uchun Tagor “haqiqiy din dogma va marosimlar dinidan farq qiladi”, deb ta‘kidlaydi. Shuning uchun Tagor Radxakrishnaning quyidagi nazariyasiga qo‘shiladi: “Agar dinlar asl jozibasiga ega bo‘lishni davom ettirmoqchi bo‘lsa, ular o‘zlarini zamon ehtiyojlariga moslashtirishlari kerak. Din uchun bir joyda turish degan narsa yo‘q. Agar u atrofdagi o‘zgarishlarga moyil bo‘lmasa, turg‘unlik dinni qamrab oladi”[7.298].

Ehtimol, “Halokat” romani ushbu idealga asoslangandir. Ushbu romanda, garchi Kshemankari chuqur dindor bo‘lsa-da, o‘g‘lini ortodoksal qarshlardan qaytarish uchun va‘z qilib, Brahma qiz Hemanalini bilan turmush qurishini so‘raydi. U ortodoksal qarshlarga ergashsa ham, o‘g‘liga zamon bilan hamnafas bo‘lishni maslahat beradi. U hattoki asketizm g‘oyasiga qarshi va o‘g‘lini ham buyo‘ldan qaytarish uchun ushbu gaplarni aytadi: “men bir johil ayolman va e‘tiqod qilgan yo‘limdan voz kecholmayman”[8.293].

Tagor dinining yana bir muhim jihati shundaki, u soxta va dogmatik deb hisoblagan institutsional dinlarga qarshi. Haqiqiy dinni urf-odatlar va marosimlar kabi tashqi iboralar bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Tagorning aytishicha, dogmatik dinda barcha savollarga aniq javob beriladi, barcha shubhalar nihoyat to‘xtashga olib keladi. Uning fikricha, din diniy tashkilotlarga yo‘l ochishi kerak bo‘lsa, bu xuddiki qum bahranlarining daryo ustidan hukmronligiga o‘xshaydi. Hozirgi turg‘unlik va uning jihatlari xuddiki cho‘l kabidir [9.335].

Tagor hech qachon hech qanday diniy tizimga ko‘r-ko‘rona ergashmaganligini ko‘rishimiz mumkin, chunki unga atrofdagi odamlarning aksariyati ergashadi. Uning o‘zi “The Religion of Man” (Inson dini) asarida aytadi: "mening temperamentimning o‘ziga xosligi tufayli men har qanday diniy ta‘limotni qabul qilishdan bosh tortdim, chunki atrofimdagi odamlar buni haqiqat deb hisoblashadi. Mening fikrimni erkinlik muhiti qamrab oldi. Qaysiki, e‘tiqod qiluvchilarning ba‘zi uyushgan guruhlarida o‘z sanksiyalariga ega bo‘lgan hukmron aqidalardan kelib chiqqan ozodlikdir”[16.91]. Tagorning so‘zlariga ko‘ra, din-bu yagonalik - birlikni anglashdir. Bu esa uning barcha dinlarning sintezini namoyish etish orqali o‘zining aqliy rivojlanish evolyutsiyasini ifoda etishga harakat qilgan “Gora” asarida eng yaxshi ifodani topadi.

“Gora” romanida, Xoran bu hindlardagi hamma narsani rad etadigan tor fikrli Brahman va Gora begona har qanday narsalarni rad etadigan va hindlardagi hamma

narsani qabul qiladigan tor fikrli Hinduistdir. Tagor Baroda Sundari va Xaran singari radikal Brahmanizm tarafdorlari va Xristianlikni qabul qilish orqali inglizlar manfaatlariga xizmat qiladigan odamlarni satirik usulda hajv qiladi. U millatparvarlik tuyg‘usiga xizmat qilish uchun ortodaksal Hinduizmini qabul qilgan Goraning ekstremal Hinduizmini teng ravishda satira qiladi. Sujit Mukerji ta’kidlashicha, Tagor hinduistlarning jaholatparastligi va brahmanistlarning mazhabparastligi bilan ifodalangan ekstremizmdan xalos bo‘lib, shu bilan ikkala bu noto‘g‘ri o‘ylangan kuchlarga “adolatni taminlash” ni ta’minlashda yordam berdi [4.181].

XULOSA

Tagor Buddaning hayoti va gumanistik ta’limotidan juda ilhomlanganligini Dhammapada tarjimasida Bengallar va mistik rohiblar va ularning insonga bo‘lgan sevgisida namoyon etadi. Uning ko‘plab romanlarida insoniyatning sodda muhabbatini aks ettiradigan shu kabi obrazlarni topish mumkin. Biz ko‘rishimiz mumkinki, Kshemankari Anandamoyi, Paresh Babu, Jag Mohan va Sreebilas kabi dunyoviy obrazlar uning romanlaridagi tor ichki devorlarning mahbuslari emaslar. Shuningdek, ular hech kimning kastasi yoki dini bilan bog‘liq muammolarga duch kelmaydilar. Ular aql bilan ish ko‘radigan yo‘lboshchilar, faylasuflar edi.

Xulosa qilib aytganda, biz ushbu maqolada Robindranat Tagor diniy-falsafiy qarashlarida insonni ilohiylashtirish va xudoni insoniylashtirish masalalarini ko‘rib chiqib o‘z fikrlarimizni umumlashtirishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ghose, Sisir Kumar. Rabindranath Tagore. – New Delhi: Sahitya Akademi, 2005. – 153p.
2. Majumdar R.C., Raychaudhuri H.C., Kalinkar D. An Advanced History of India. – New Delhi: Macmillan India, 1974. – 806 p.
3. Mukherjee P.K. Rabindrajivani (Vol.1). – Calcutta: 1355. –.50 p.
4. Mukherjee S. Passage to America. – Calcutta: Book Land Private Ltd., 1964. – 181 p.
5. Naravane V. S. An Introduction to Rabindranath Tagore. – Delhi: Macmillan &CO., 1977. – 48 p.
6. Niharranjan R. Three Novels of Tagore in Indian Literature. – New Delhi: Sahitya Akademi, 1961. – 164 p.
7. Radhakrishnan S. Occasional Speeches and writings. – India: The Publications Division, Ministry of Information & Broadcasting, 1956. – 298 p.
8. Tagore R. The Wreck // Translated by Drummond J. G. from Naukadubi. – London: Macmillan, 1921. – 347 p.
9. Tagore R. A Letter. The Modern Review. September, 1917. - 335 p.

10. Tagore R. One Hundred Poems of Kabir. – London: Macmillan &Co., 1961. – 104 p.
11. Tagore R. Gitanjali. – India: Macmillan, 2007. – 52 p.
12. Tagore R. Sadhana. – London. Macmillan & Co., 1979. – 91 p
13. Tagore R. The Gardener. – London: Macmillan, 1919. – 116 p.
14. Tagore R. Boundless Sky. – Calcutta: Visva Bharati, 1964. – 269 p.
15. Tagore R. Sadhana. – New York: The Macmillan Company, 1916. – 149 p.
16. Tagore R. The Religion of Man. – London: George Allen & Unwin, 1949. – 200 p.
17. Tagore R. Creative Unity. – London: Macmillan &CO, 1962. – P. 201.
18. Umarjonov, S., Safarov, M. (2021). Fahriddin Roziyning “Latoif ul-g’iyosiyot” qo’lyozma asarida aql va e’tiqod masalasining qo’yilishi va uning diniy-falsafiy germevtik tahlili. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 1058-1068.
19. Umarjonov, S. (2023). Analysis of the logical views of Fakhr al-Din al-Razi. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, (Special Issue), 73-80.
20. Умаржонов, С. (2023). Ibn Sinoning “Ishoralar va tanbehlar” asari va Postklassik islom falsafasining boshlanishi. *Scienceproblems. uz*, 3(1), 37-50.